



# Yy hayvonlari



@defektolog\_kundaligi



Defektolog  
Karimova Z.A.

# Bizning do`stlarimiz

- Hayotimizni uy hayvonlari – it, mushuk, ot, echki, qo`y, sigirsiz tasavvur qilib ko`ring.. Yo`q, buning aslo iloji yo`q! Biz to`rt oyoqli do`st va yordamchilarimizga o`rganib qolganmiz. Ming yillar davomida ular bizning yonimizda yashab kelib, bizni yedirib, ichirib, kiyim, poyafzallar bilan ta`minlab, bizga bog`lanib, o`z mehr va sadoqatlarini namoyon etib, qalbimizda mehr-shafqat uyg`otadilar.



## **Kuchuk va kuchukcha uychasi oldida.**

Topishmoqni toping:

**Egamga xizmat qilib**

**Uyini qo`riqlayman.**

**Baland ovozda xurub**

**Dushmanni qo`rqitaman.**

Aziz ABDURAZZOQ

**KAPALAKNI QUVGAN KUCHUK**

Kapalakni quvlar kuchuk,

Ushlolmasdan uvlar kuchuk.

Uvlamagin, sodda kuchuk,

Yig'lamagin, sodda kuchuk.

Nega kerak u kapalak?

U — kapalak emas, suyak.

- Hamma bolalar kichkinagina kuchukchalari bo`lishini istashadi. U bilan hayot qiziq va zavqli bo`ladi!



# *Bu uychada qaysi hayvon yashaydi?*

- Itlar maxsus yog`ochdan yasalgan uychalarda yashaydilar.



## Mushuk va mushukchalar uyda yashashadi

### Topishmoqni top:

**Panjam yumshoq bo`lsa  
ham**

**“Tirnoqvoy” deb nom  
oldim,**

**Sichqonlarni qiyratib,  
Egamdan maqtovd oldim.**

Shukur SA'DULLA

**MITTI**

Mitti degan mushugim,  
O'ta ketgan olg'ir, shum.

Mitti poylab turadi,

Sichqonvoyni ko'radi.

Sichqon mushukni ko'rib,

Qochar teshikka urib.

Sichqon qochib qutular,

Mushuk esa tutilar.

- Go`shtxo`r hayvonmi ?
- Qanday ko`rinishga ega ?
- Qayerda yashaydi?



# Ot va toychoqlar otxonada yashaydi

Saman toychoq

O`ynar har choq.

Peshonasi

Qorday oppoq

Saman toychoq.

*Topishmoqni top:*

**Tort oyoqli,**

**Temir tuyoqli.**

- Ot qanday yemishni yeydi? ( ot arpa, suli, barra o`t yeydi. Unga qand, qora tuzli non berish mumkin). O`simlilar bilan oziqlanadigan hayvonlar qanday nomlanadi?

( o`txo`r hayvonlar)



*Bu yerda nima yashaydi? Nomi nima?*



## **Sigir va buzoq molxonada yashaydilar**

*Topishmoqni top:*

**Sut, qatig, qaymoq bilan  
Sariyog`u pishloq bilan.  
Siylaydi doim bizni  
Buuvijonim .....**

**Buzoqcha**

**Hoy buzoqcham, buzoqqcham  
Tez kel, shalpanq quloqcham  
O`t keltirdim yeb olgin  
Tezroq sdmira qolgin**

- Qanday foyda keltiradi?





# Echki va uloqcha molxonada

Topushmoqni top:

**Chorva ichida shayton  
Soqoli uzun sulton.  
Soqoli bor, mo'ylovi yo`q.**

Oydin HOJIYEVA

## ULOQCHA

Sakrab yurar uloqcha,  
Bo'ynida qo'ng'iroqcha.  
Uloqchaga suv berar  
Tol tagida buloqcha.  
Uloqchanning fe'lidan  
Qo'rqib turar nihollar.  
Sindirma, deb niholni,  
Quvlab qolar shamollar.  
Qarang echki xolaning  
Shoxini, suzib kelar.  
— Urishma, — deb, — bolamni, —  
Ko'chani buzib kelar.  
Dikirlama, uloqcha,  
Bebosh-u bequloqcha!  
Yaxshi gapga kirmasang,  
Suv bermaydi buloqcha! .

- Qanday ko`rinishga ega ?
- Qanday ovoz chiqaradi?
- Qayerda yashaydi?
- Nima yeydi?



## Qo`y va qo`zichoq qo`yxonada

### Qo`zichoq

Ex, mening qo`zichog`im  
Ko`zi tiyrak munchog`im.  
Zeriksam ovunchog`im,  
Tek turmaysan sira ham

Siylayin o`tlar terib,  
Siylayin suvlar brrib,  
Erkalasam -da suyib  
Tek turmaysan sira ham.

Topishmoqni top:

Totli go`shtini yeymiz

Yungin libos qilamiz.

- Jun ipli qo`lqopchalar nimaning yungidan to`qilgan?



# FERMA

- Bir soʻz bilan bu hovlidagi yashovchi hayvonlarni nima deb ataymiz?
- Siz bilan suxbatlashgan hayvonlarni sanab bering.
- Fermadagi barcha hayvonning oʻz uyi bor. Ularning nomini ayting.
- Oʻtxoʻr hayvonlar nomini ayting ( sigir, qoʻy, echki, ot )
- Nima deb oʻylaysiz mushuk oʻtxoʻr hayvonmi yo goʻshtxoʻrmi? Sababi nima?
- Uy hayvonlari qanday foyda keltirishini ayting.



### « Nima qayerda yashaydi?» o`yini

Turli uy hayvonlari uyini nomla.

Sigir - molxona.

It - ..... uycha

Ot - .....otxona.

Echki - ..... og`ilxona.

Qo`y - .... qo`yxona.

Mushuk -... uyimizda, savatda.

### “Nima qanday ovoz chiqaradi?” o`yini

Cho`chqa – xurillaydi

It – vovillaydi

Qo`y – baraydi

Echki – ma`raydi

Ot – kishnaydi

Mushuk - miyovlaydi

### «Ona va bola» o`yini

Turli uy hayvonlari ota,ona va bolasi nomini ayt:

Xo`kiz, sigir va buzoq.

Ayg`ir, biya va toychoq.

Qochqor, qo`y va qo`zichoq.

Mushuk va mushukcha.

Taka, echki va uloqcha.

Eshak va ho`tik.

Tuya va bo`talog`.

### «Qanday ko`rinishda?» o`yini

Uy hayvonlarining tana a`zolarini aytib ber.

( shoxi, tuyog`l, yelini, dumi, uoli, qulog`i )

### “Nima qanday foyda keltiradi?” o`yini

It- uy qo`riqlaydi

Sigir – sut beradi

### “Nima yeydi?”

It – go`sht, suyak yeydi.

Mushuk –

Sigir-